

**МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТИ ТАРБИYАЧИЛАРИНИНГ
КРЕАТИVLIGINI OSHIRISH***Sobirjonova Muslima**Andijon davlat Pedagogika instituti**Maktabgacha ta’lim fakulteti Maktabgacha ta’lim yo’nalishi**2-kurs talabasi*

Annotatsiya. Jahon miqyosida ta’lim tizimini isloh qilishning muhim omillaridan biri sifatida tarbiyachi-pedagoglarning kreativ salohiyatini va kasbiy-pedagogik faoliyati samaradorligini oshirish, kasbiy kompetentligi rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ilg‘or ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiya mashg‘ulotlarini samarali pedagogik texnologiyalar, yondashuvlar bilan boyitish bilan birga, soha mutaxassislarini yuqori kompetensiyaga ega bo‘lish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Annotation. As one of the important factors for the reform of the educational system on a global scale, special attention is paid to improving the creative potential and effectiveness of professional-pedagogical activities of educators and educators, developing professional competence. Advanced educational institutions, along with the enrichment of educational and educational activities with effective pedagogical technologies, approaches, bring the need for specialists in the field to have high competence.

Аннотация. В качестве одного из важнейших факторов реформирования системы образования в мировом масштабе особое внимание уделяется повышению творческого потенциала и эффективности профессионально-педагогической деятельности педагогов-воспитателей, развитию их профессиональной компетентности. Передовые образовательные учреждения, обогащая учебно-воспитательную деятельность эффективными педагогическими технологиями, подходами, создают потребность в высокой компетентности специалистов отрасли.

Kalit so’zlar: Kreativlik, malaka, ko’nikma, maxorat, kompetensiya jamiyat

Keywords: creativity, competence, skill, skill, competence, competence society

Ключевые слова: креативность, компетентность, умение, мастерство, компетентность общество

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag‘i PQ-4312-soni “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida maktabgacha ta’limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish,

maktabgacha va umumiy boshlang‘ich ta’lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta’lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o‘qitish asoslarini joriy etish muhim vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tildi.

Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda:

- bolalarni sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish ko‘lmini oshirish;
- bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha sohaga oid bilimlar va ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Kreativlik - (lot. “sreativi”; ingl. “sreativite” “yaratish”, “bunyod qilish”) – bu ijodiy qobiliyatlik darjasni, shaxsning barqaror sifati hisoblanadigan ijod qilishga bo‘lgan qobiliyati bo‘lib, u kreativ tafakkur bilan bog‘liq. Kreativ tafakkur – bu shaxsning o‘z oldida turgan vazifalarini nostandard xal etish hamda o‘z maqsadlariga erishishning yangi, yanada samaraliroq yo‘llarini topish qobiliyatidir. Ya’ni kreativlik asosan boshqalarga o‘xshamagan g‘oyalarni o‘ylab topish, an’ana tusiga kirib qolgan fikrlashdan qochish hamda muammoli vaziyatlarni tez hamda samarali hal etish yo‘llarini bilih hisoblanadi. Kreativlik insondagi ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga asos yaratadigan individual sifatlarining hamda fikrlash qobiliyatlarining birligidan iborat bo‘ladi.

N.Muslimov, M.Usmonboyevalarning fikricha, kreativlik – kelajakka turtki beradigan xususiyatdir. Kreativlik – shaxsni ilhomlashtirishga xizmat qiladi, shu nuqtayi nazardan shaxs kreativligini shakllantirish va rivojlantirish har qanday ta’lim qismiga singdirilishi kerak¹.

Kreativlik bo‘yicha o‘zining tizimli ilmiy-tadqiqotlarini olib borgan P.Torrens talabalardagi kreativlik qobiliyatlarining rivojlanishida ulardagi ijodiy faollikka nisbatan motivatsiyaning qaror topganligi, ijodiy ish natijalarini ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatliligi, shuningdek, o‘z-o‘zini doimiy kasbiy rivojlantirish ehtiyojini shakllanganligi muhim omillardan ekanligini ta’kidlaydi².

Tadqiqotchilar Y.S.Gromova va V.A.Molyako talabalar kreativligining yettita belgisini ta’kidlab o‘tadi: o‘ziga xoslik, yaratuvchilik, fantaziya, faollik, maqsadga yo‘nalganlik, aniqlik, ta’sirchanlik.

Bir qator pedagogik adabiyotlar tahlili va keyingi yillarda ilmiy izlanishlar olib borilgan tadqiqot ishlarida ham “kreativ”, “pedagogik kreativlik”, “kreativ qibiliyatlar”, “kreativ kompetentlik” tushunchalariga atroflicha izoh berib o‘tilgan.

¹ Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari // 2007. Ped. fan. dok. ...diss. –T., – 315-b.

² Torrence E.P. Developing creative thinking through school experience. // N.Y., 1962. – 215-p.

“Kreativ yondashuv” tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’riflarini keltirish mumkin.

Inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolar yechimini hal etishi, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Pedagogik faoliyat va kuzatishlarimiz asosida aytishimiz mumkinki, tarbiyachilar o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kreativ kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim. Fikrimizcha, har bir tarbiyachi kasbiga sadoqat bilan yondashgan holda:

- intellektual-ijodiy tashabbuslar ko‘rsatishi;
- kasbiy bilimlarining kengligi va teranligi;
- intellektual qobiliyatlarga ega bo‘lishi;
- turli ziddiyatlarga tayyor turishi;
- ijodiy g‘oyalarni ilgari surish va ularga tanqidiy munosabatlar bildira olish;
- yangiliklarga intilish;
- o‘zining tajribalarini boshqalarning tajribalari bilan taqqoslagan holda o‘zining imkoniyatlari, kamchiliklari va muvaffaqqiyatlarini anglab etishi;
- o‘zidagi kreativ jihatlarni anglay olishi;
- o‘zini ko‘rsata olishi, yangiliklarni amaliyotga olib kirishga tayyor turishi;
- har bir pedagog tarbiyalanuvchilar nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonini loyihalashda ta’lim strategiyalardan o‘zi uchun maqbulini tanlashi mumkin. (Strategiyalardan birining tanlanishi o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, shaxsiy qiziqishlari, shuningdek, mavjud hayotiy vaziyatlarga bog‘liq)³.

Tarbiyachining kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

Shaxsga xos kreativlik sifatlari quyidagilar: ijodiy yo‘nalganlik, mantiqiy fikrlash qobiliyati, bilag‘onlik, boy tasavvurga egalik, ijodiy ta’sirchanlik va tashabbuskorlik, o‘z ijodkorligini to‘la-to‘kis namoyish etish, hissiyotga boylik, tavakkal qila olish qobiliyati, tafakkur tezligiga egalik, ichki sezgining rivojlanganligi, o‘ziga xos g‘oyalarni ilgari sura olish qobiliyati, innovatsion qobiliyatga egalik, yuksak

³ Mirzayev K.K. Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagи bolalar tafakkurini rivojlantirish // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 yil №7). – B. 311-318.

badiiy qadriyatlarga egalik, mavjud tajriba va bilimlar asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi.

Bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi jarayonlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

- bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

- bo‘lajak tarbiyachilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish, ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;

- o‘quv jarayonini bo‘lajak tarbiyachi shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

- bo‘lajak tarbiyachilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandard yechimlar qabul qilishga undash;

- kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Bo‘lajak tarbiyachilarни kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun, avvalo, professor-o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgata oladi. Demak, o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, talabalar ham shunday bo‘la oladi. O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur⁴.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi uchinchi renessans boshlanish va yangi O‘zbekistonni qurish davrida innovatsion faoliyatning yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, hamda mamlakatimizning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo‘lib bormoqda. Chunki, bugungi tezkor va raqamli rivojlanish davrida jamiyat uchun kreativ fikrlovchi, innovatsion g‘oyalarni yaratuvchi hamda ularni amaliyotda samarali qo‘llovchi malakali mutaxassislar zarur. Bu esa o‘z navbatida, ta’limni raqamlashtirish

⁴ Artikova M., To‘raboyeva M. Talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari // “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 4. – B. 84-87.

jarayoniga innovatsiyalarni, o‘qitishning zamonaviy interfaol va ijodiy uslublarini joriy etish, sohaga yo‘naltirish orqali ta’lim sifatini oshirishga ko‘maklashuvchi innovatsion o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish va boshqarish, talabalarni mustaqil ishlashi va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishni talab etadi.

Sifatli va raqobatbardosh ta’lim – bu barqaror iqtisodiy o‘sish, fan va texnologiya rivoji, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilashdagi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Raqamlashtirish ta’lim sifatini yaxshilaydi, aynan shu sabab ham raqamli texnologiyalar qator mamlakatlarda faol tarzda ta’lim tizimiga kiritilmoqda: Bu talabalar o‘zlashtirishining monitoringini yaxshilabgina qolmay, o‘qish jarayonini qiziqarliroq, uning natijalarini sezilarli darajada yuqori bo‘lishiga yordam beradigan yangi ta’lim usullari va yondashuvlarini ishlab chiqishga ham yordam beradi⁵.

XULOSA

Hozirgi zamon jamiyat rivojlanishining yangi bosqichi shaxsni rivojlantirishning yangi yo‘llarini izlash, uning ijodiy tashabbusi, mustaqil va harakatchanligini rivojlantirish sifatida baholanadi. Malakali mutaxassisni tayyorlash darajasiga, shu jumladan, uning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish darajasiga, kelgusi kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan turli muammolarni mustaqil ravishda yechish qobiliyatiga nisbatan talablar ortib bormoqda. Bugungi kunda faqat o‘z ishiga ijodiy munosabatda bo‘lgan insongina iqtisodiy o‘zgarishlar va ilmiy-texnik taraqqiyot uning oldiga qo‘yadigan barcha amaliy va nazariy vazifalarni bajara oladi. Zamonaviy sharoitda shaxsiy o‘sish, yaxshi ish topish hamda karyera qilish uchun olingan bilimlarni qo‘llay olish mahorati, intellektual va ijodiy qobiliyatlar bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маркова А.К. Психология профессионализма.-М.: Знание, 1996.-308 с.
2. Mirzayev K.K. Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 yil №7). – B. 311-318.
3. Muslimov N., Usmonboeva M. va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – T.: 2015. – 120 b.
4. Artikova M., To’raboyeva M. Talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari // “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 4. – B. 84-87.
5. Akbarova S. Kreativ kompetensiyalar va ularni talabalarda shakllantirish masalalari // “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 4. – B. 62-65.
6. Yaqubova Muhabbat TARBIYACHILAR KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI FAOLIYATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI PEDAGOGS” international research journalSSN: 2181-4027_SJIF: 4.995

⁵ Akbarova S. Kreativ kompetensiyalar va ularni talabalarda shakllantirish masalalari // “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 4. – B. 62-65.